

OTISH TAYYORGARLIGI MASHG‘ULOTI ORQALI BO‘LAJAK OFITSERLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH (ZAMONAVIY INTERAKTIV O‘Q OTISH TRENAJYORLARI MISOLIDA)

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

tinglovchisi Yarmatov Akbar Normurotovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida otish tayyorgarligi fanining o‘rni va ahamiyati, shuningdek zamonaviy interaktiv o‘q otish trenajyorlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etiladi. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulotlar bo‘lajak ofitserlarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish, motivatsiyasini oshirish va jangovar tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: otish tayyorgarligi, harbiy-vatanparvarlik, interaktiv trenajyor, simulyator, o‘quv jarayoni.

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение дисциплины «огневая подготовка» в процессе воспитания будущих офицеров в духе военно-патриотизма, а также педагогические возможности использования современных интерактивных стрелковых тренажёров. Обосновано, что занятия, основанные на современных технологиях, способствуют формированию профессиональных навыков будущих офицеров, повышению их мотивации и улучшению качества боевой подготовки.

Ключевые слова: огневая подготовка, военно-патриотическое воспитание, интерактивный тренажёр, симулятор, учебный процесс.

Annotation: This article analyzes the role and significance of the subject “firearms training” in educating future officers in the spirit of military patriotism, as well as the pedagogical potential of using modern interactive shooting simulators. It is substantiated that technology-based training sessions contribute to the development of future officers’ professional skills, enhance their motivation, and improve the quality of combat readiness.

Keywords: firearms training, military patriotism, interactive simulator, simulator, educational process.

KIRISH: Harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi, ayniqsa, o'qotar quroldan mohirona foydalanish darajasi har qanday armiyaning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ajdodlarimizning yuksak jangovar mahorati, kamonchilik va merganlik borasidagi tarixiy merosi bugungi avlod uchun ham muhim tarbiyaviy o'lchov bo'lib xizmat qiladi. "Qirq chaqirimdan kamon o'qini uzukdan o'tkazgan" merganlar haqidagi rivoyatlar nafaqat tarixiy fakt, balki hozirgi Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi uchun ruhiy-ma'naviy kuch manbai hamdir.

Zamonaviy armiyada harbiy xizmatchining quroldan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmasi qonunchilikda ham alohida muhim kompetensiya sifatida e'tirof etilgan. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy ta'lim muassasalarida otish tayyorgarligi yetakchi o'quv fanlaridan biri bo'lib, bo'lajak ofitserlarning jangovar vazifalarni bajarishga tayyorgarligini belgilovchi hal qiluvchi yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fanni o'zlashtirishda muntazam amaliy mashg'ulotlar, texnik vositalardan oqilona foydalanish va kursantlarning psixologik tayyorgarligini to'g'ri shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rimyo'zuvchisi Kliment Aleksandriyskiy (eramizdan oldingi II asr) saklar qabilasining ayollari haqida bunday deb yozgan edi: "Sak ayollari ayyorlik bilan qochib keta turib, ot ustida xuddi erkaklarday orqaga burilib o'q uzar edilar" [1].

Xalqning yashashi, mehnati va o'z-o'zini himoya qilish ehtiyojlaridan xalq o'yinlari kelib chiqqan. Xalqimizning ajoyib dostoni bo'lgan "Alpomish" dostonida tirandozlik haqida so'z ketadi. Chunonchi, "Hakimbek yettiyoshga kirgan edi. Oltinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchidan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shu yetti yashar bola - Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyini qo'lga ushlab ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqisini yulib o'tdi..." Dostonning asosiy qahramonlaridan biri bo'lgan Barchin erga tegish uchun to'rtta shart qo'ydi. Shartlarning ikkitasi o'q-yoy otish bilan bog'liq. Masalan, ikkinchi shart:

“...yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga, – men tegaman shul yoyandoz polvonga”, – deydi.

Uchinchi shart:

Ming qadamdan tanga pulni urganga,

Men tegaman shul qarchig‘ay merganga[2].

Zayniddin Vosifiyning hikoya qilishicha, “Navro‘z Ahmad kamondorlikda shu darajaga yetdiki, birorta pahlavon ham uningdek kamon tortolmasdi”.Uning yoy o‘qi dushmanko‘ziga borib yetmay tinchimasdi; kamon tortgan vaqtida falak qavs chillaxonasidan turib tahsinga og‘izochardi. O‘qi otilgan vaqtda burchaklardan “Ofarin”ovozi ko‘tarilardi...”[3].

Bugungi kunda milliy armiyamizning kuch-qudrati va salohiyati ortib bormoqda, harbiy xizmatchilarimiz esa o‘zining yuksak kasbiy tayyorgarligi bilan alohida e‘tibor va e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. Bir necha rivojlangan armiyalar ishtirokida bo‘lib o‘tayotgan Xalqaro armiya o‘yinlarida harbiy xizmatchilarimizning munosib ishtiroki buning yaqqol isbotidir. Shuningdek, 2024-yil davomida Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari va mutaxassislari turli xalqaro harbiy musobaqalarda faol qatnashib, bir qator faxrli o‘rinlarni egalladi. Pokistonda VII Xalqaro **“Jamoar ruhi”** musobaqasida 1-o‘rin; Rossiyada **“Sayan yurishi”** musobaqasida 3-o‘rin; Turkiyada **“Eng ilg‘or mergan”** musobaqasida 1-o‘rin; **Harbiy-kasbiy tayyorgarlik xalqaro olimpiadasida** 1-o‘rin; Koreyada **“Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik”** musobaqasida 1-o‘rin; Koreyada **I xalqaro merganlar musobaqasida** 2-o‘rin; Buyuk Britaniyada **“Kembriya patruli”** musobaqasida 2-o‘rin; MDHga a‘zo davlatlar armiyalari o‘rtasida **“O‘q otish sporti”** musobaqasida 1-o‘rin; MDHga a‘zo davlatlar armiyalari o‘rtasida **“Harbiy sport kompleksi ko‘pkurashi”** musobaqasida 2-o‘rin kabi yutuqlar va zafarli yurishlar ana shular jumlasidandir [4]. Ushbu yutuqlar zahirida bo‘lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga juda katta zahir yaratadi.

O‘qotar quroldan mohirona foydalanish darajasi bo‘lajak ofitserlarning nafaqat texnik va psixologik tayyorgarligini sinovdan o‘tkazadi, balki sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, otish tayyorgarligi mashg‘ulotini o‘rganish orqali vatanparvarlik balki

harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda otish tayyorgarligining o'rnika, chunki u ularning harbiy mahoratini, jangovar tayyorgarligini va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi. Ushbu mashg'ulotlar nafaqat zarur jangovar ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, balki bo'lajak ofitserlarning qat'iyatini, intizomini va mas'uliyat hissini rivojlantiradi, bu esa ularni professionallikka tayyorlaydi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'lajak ofitserlarning nafaqat ma'naviy qiyofasini, balki real jangovar faoliyatga ruhiy va jismoniy tayyorgarligini shakllantiradi. Otish tayyorgarligi esa mazkur tizimning tayanch bo'g'ini sifatida quyidagi jihatlarni ta'minlaydi:

Jangovar ko'nikmalarni rivojlantirish - otish tayyorgarligi bo'lajak ofitserlarning turli vaziyatlarda to'g'ri harakat qila olishi, o'qotar qurollardan samarali foydalanishi va jangovar sharoitlarda o'zini himoya qilish qobiliyatini oshiradi.

Jangovar vazifalarni bajarishga ruhiy tayyorgarlik - o'q otish bo'yicha muntazam mashg'ulotlar bo'lajak ofitserlarning jasorati, o'ziga ishonchi va qat'iyatini mustahkamlaydi.

Vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash - otish mashg'ulotlari jarayonida bo'lajak ofitserlar o'z Vatanini himoya qilish uchun o'zlarining shaxsiy va jangovar tayyorgarligini kuchaytirish muhimligini anglab yetishadi, bu ularning vatanparvarlik ruhini yanada kuchaytiradi.

Vatan himoyasiga tayyorlik tuyg'usi - qurolni to'g'ri ushlash, nishonga olish va o'q otish texnikasini puxta egallash yoshlarning mas'uliyatini oshiradi.

Harbiy an'analar davomiyligi - ajdodlarimizning jangovar san'ati va hozirgi zamonaviy qurollanish tizimi o'rtasida uzviy bog'liqlik shakllanadi.

Intizom va qat'iyatni shakllantirish - otish tayyorgarligi qat'iy intizom va diqqatni talab qiladi, bu bo'lajak ofitserlarda irodani mustahkamlaydi, ularda mas'uliyat hissini oshiradi va ularni murakkab vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.

Jismoniy va ruhiy chidamlilikni oshirish - otish tayyorgarligi mashqlari jismoniy va ruhiy chidamlilikni oshirishga yordam beradi, bu bo'lajak ofitserning jangovar vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan stress va yuklamalarga bardosh bera olishini ta'minlaydi.

Kasbiy kompetensiyalar tizimini mustahkamlash - harbiy bo'lajak ofitserning har qanday sharoitda quroldan to'g'ri foydalanish qobiliyati uning kasbiy saviyasini belgilaydi.

Shunuqtayinazardanotishtayyorgarliginafaqatamaliy, balkima'naviy-tarbiyaviyahamiatga ham egabo'lgan kompleks fanni tashkil etadi.

Hozirgi kunda harbiy ta'lim muassasalarida elektron o'q otish tirlari, lazer simulyatorlari va videoproektsiya tizimlari o'quv jarayonini takomillashtirishda keng qo'llanilmoqda. Bunday vositalar quyidagi afzalliklarni beradi:

O'q otish texnikasini bosqichma-bosqich o'rgatishda asosan, elektron trenajyorlardan foydalanish: to'g'ri mo'ljalga olish, nafasni boshqarish, tepkini bosish texnikasi va qurolni xavfsiz ishlatish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni qisqa vaqt ichida shakllantirish imkonini beradi.

Mashg'ulotlar xavfsizligi va tejamkorligiga rioya etish esa, interaktiv lazerli tirlarda real o'q-doridan foydalanilmagani sababli - jarohatlanish xavfi kamayadi, moddiy resurslar tejraladi, mashg'ulotlar takroriy bajarishga qulay bo'ladi.

Vaziyatlarni real jangovar sharoitga yaqinlashtirilganholda modellashtirishda, simulyatorlar yordamida quyidagi jarayonlar imitatsiya qilinadi: nishonning paydo bo'lishi va harakatlanishi, tezkor qaror qabul qilish, juftlikda yoki guruhda ishlash, murakkab taktik vaziyatlarni yechish, Bu esa bo'lajak ofitserlarning psixologik moslashuvini kuchaytiradi.

Samimiy tahlil va natijalarni baholash esa, dasturiy ta'minot otish tezligi, aniqligi, texnik xatolar, reaksiya vaqti kabi ko'rsatkichlar bo'yicha aniq ma'lumotlar beradi. Bu ta'lim oluvchining har bir harakatini chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi.

Interaktiv o'q otish tirlari va ularning pedagogik ustunliklari bo'lajak ofitserlarga quyidagi jihatlarni ta'minlaydi:

psixologik qo'rquvning kamayishi, ayniqsa yangi boshlovchilar orasida;

muvaffaqiyatli natijalarning tez shakllanishi, chunki elektron tizimlar xatolarni darhol ko'rsatadi;

ko'nikmalarni avtomatlashtirish, chunki mashqlarni ko'p marotaba takrorlash imkoni mavjud;

motivatsiyaning oshishi, vizual va interaktiv jarayon kursantlarni faol bo'lishga undaydi.

Lazerli tirlardan foydalanish, ayniqsa, yuqori tezlikda nishonga o'q uzish va to'satdan paydo bo'ladigan xavflarga munosabat bildirish malakasini rivojlantirishda yuksak samara beradi. Shu bilan birga, real poligon mashqlari o'rnini to'liq bosa olmasligi tabiiy, ammo ularga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi.

Tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda otish tayyorgarligi quyidagi metodik yondashuvlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

Modulli o'qitish texnologiyasi – nazariya va amaliyotning uzviyligini ta'minlaydi.

Interaktiv tahlil va refleksiya – bo'lajak ofitserlarning har bir mashg'ulot davomida otish bo'yicha o'z xatolarini mustaqil baholashi.

Taktik-vaziyatli mashg'ulotlar – real jangovar sharoitlarga mos vazifalar bajarish.

Psixologik tayyorgarlik – stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish malakasini mustahkamlash.

Harbiy an'analar bilan integratsiya – ajdodlarimizning jangovar merosi bilan zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi.

Bunday yondashuv o'quv jarayonini tizimli, maqsadli va yuqori samarali qiladi.

XULOSA: O'q otish tayyorgarligi bo'lajak ofitserlarning jangovar mahoratini shakllantirish bilan birga, ularda harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning ham eng muhim vositasi hisoblanadi. Zamonaviy elektron trenajyorlar, lazerli o'q otish tirlari va simulyatorlar otish texnikasini o'rgatish jarayonini yengillashtiradi, psixologik qo'rquvni kamaytiradi, natijalarni tahlil qilish imkonini beradi va bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli oshiradi.

Biroq interaktiv tizimlar real poligon mashg'ulotlarini to'liq almashtira olmasada, ularga puxta tayyorgarlik ko'rish, ko'nikmalarni shakllantirish va barqarorlashtirishda

beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, otish tayyorgarligi – bo‘lajak ofitserlarning jangovar salohiyati, ma’naviy barkamolligi va Vatan himoyasiga tayyorligini belgilovchi strategik o‘quv yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Афонасин Е.В. «Гносеология» Климента Александрийского и греческая философия, –Климент Александрийский. Строматы. Пер. Е.В.Афонасина. Т.1.М.,2003, – С. 503–542.
- 2.https://www.researchgate.net/publication/358675800_Xalq_o'yinlarining_komil_inson_shaxs_sifatida_shakllanishida_etnopedagogik_mohiyati_va_tasnifiy_xususiyatlari
3. Zayniddin Vosifiy. “Badoe’ ul-vaqoe’” (“Nodir voqealar”). T., G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1979.
4. R. Rashidov, “Yangi o‘zbekiston milliy armiyasi: zamonaviy yondashuv asosidagi o‘zgarish” nomli maqolasi <https://mv-vatanparvar.uz/649/>
- 5.<https://gov.uz/oz/mudofaa/news/view/85252>